O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

*Qo‘lyozma huquqida*
*UDK: 31:331:(575.1)*

**ODILXONOV UMARXON AYUBXON O‘G‘LI**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI

**70410801- «Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)» mutaxassisligi**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n. prof. Ayubjonov.A.H**

**TOSHKENT – 2025**

**Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasida bajarilgan.**

**Ilmiy rahbar** _____ **i.f.n. prof. A.H. Ayubjonov**

**Kafedra mudiri** _____ **i.f.f.d. prof. B.K. Utanov**

**Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani** _____ **i.f.n. prof. J.I. Karimqulov**

Men, _____
(F.I.Sh) ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**"IQTISODIY STATISTIKA" KAFEDRASI**

# MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHLARINING DASTLABKI HIMOYA BAYONNOMASI

**2025 yil 15 aprel** **Toshkent shahri**

---

**Raisi:** Prof. Utanov Bunyod Quvondiqovich
**Kotibi:** Dots. Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich

**A`zolar:** Tashmatov Zayirkul Xudayberganovich, Ayubjonov Abbos Hosilovich, Nabixo'jaev Abbos Abduppataxovich, Akbarova Barno Shuxratovna, Sayfullaev Siddik Nosirovich

## KUN TARTIBI:

**70410801 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs, MST-01 guruhi va S-1/23 magistrlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini monitoring qilish bo'yicha magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasi**

**Rais:** Kafedraning magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasida professor-o`qituvchilar va magistrantlar qatnashmoqda. Ruxsatingiz bilan "Iqtisodiy statistika" kafedrasining magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasini ochiq deb e'lon qilaman.

Bugungi masala 70410701- Statistika (Tarmoqlar va sohalar bo`yicha) mutaxassisligi bo`yicha MST-01 guruhi magistranti Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'lining "Milliy va xalqaro mehnat bozorining statistik tahlili (O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari misolida)", Yo'ldoshev Nozimbek Ma'rufjon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari eksportini statistik tadqiq etish", Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini statistik tahlili" va Jurayev Shohruh Moyli o'g'lining "O'zbekiston chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik tadqiqi" hamda S-1/23 guruhi magistranti Ochilov Ozodbek Odil o'g'lining "Bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini statistik tahlili (Respublika tijorat banklari misolida)" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasining muhokamasi.

**Rais:** Muhokamani o`tkazish haqida qanday takliflar bor? Kun tartibiga qo`yilgan masala bo`yicha avvalo, magistrlarning ma'ruzasini eshitib, keyin muhokamaga o`tsak. Demak, ma'ruza uchun so`z magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'liga beriladi.

**Eshitildi:** Magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'li: Hurmatli seminar

## ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozorini statistik tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotining ahvolini, ishchi kuchi taqsimotini va bandlik darajasini o'rganish uchun muhimdir. Shu sababdan tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan, mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzu yuzasidagi mahalliy me’yoriy hujjatlarni o‘rganib chiqib, adabiyotlar sharxi tayyorladik. Ilmiy ishimizning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo’mitasida mehnat bozori statistikasini o‘rganish sohasida qay darajada ish olib borilayotganligini ko‘rdik. Undan tashqari xorij mamlakatlarining bu sohadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O‘rganilgan va tahlil qilingan ma’lumotlar asosida bandlik va ishsizlik darajasini prognoz qilish choralari bo‘yicha ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.



**Kalit so‘zlar:** mehnat bozori, mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, statistik prognozlash, korrelyatsion-regression modellashtirish.



## ANNOTATION

Statistical analysis of the labor market in the Republic of Uzbekistan is important for studying the state of the country's economy, the distribution of Labor and the level of employment. For this reason, we conducted a thorough work within the framework of the topic during the study. In particular, having studied other research works on the topic, views of domestic and foreign scientists, scientific articles and local regulatory documents on the topic surface, we prepared a table of literature. In order to increase the practical importance of our scientific work, we saw to what extent work is being carried out in the field of study of labor market statistics at the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. We also got acquainted with the experience of foreign countries in this area. Based on the data studied and analyzed, we have developed scientifically and practically substantiated conclusions, proposals and recommendations on measures for forecasting employment and unemployment rates.



**Keywords:** labor market, labor resources, Employment, Unemployment, statistical forecasting, correlation-regression modeling.

**Mundarija**


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH**..... | 3 |
| **I BOB.** | **MEHNAT BOZORINI IJTIMOIY-IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDA STATISTIK O'RGANISH ZARURIYATI**..... | 9 |
| 1.1. | Mehnat bozorining mohiyati, sub'ektlari va tarkibi..... | 9 |
| 1.2. | Mehnat bozorini statistik o'rganishning metodologik va metodik xususiyatlari..... | 17 |
| 1.3. | Mehnat bozorini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi..... | 24 |
| | I bob bo'yicha xulosalar..... | 36 |
| **II BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLILI**..... | 39 |
| 2.1. | Mehnat resurslari va ulardan foydalanish to'g'risida statistik ma'lumotlarning manbalari..... | 39 |
| 2.2. | Mehnat resurslari soni, tarkibi va tarmoqlararo taqsimlanish dinamikasini statistik tahlili..... | 44 |
| 2.3. | O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslariga oid statistik hisobotlarni yanada takomillashtirish masalalari..... | 52 |
| | II bob bo'yicha xulosalar..... | 54 |
| **III BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**..... | 56 |
| 3.1. | Mehnat bozori asosiy ko'rsatkichlari dinamikasining qiyosiy tahlili va ularni statistik baholash..... | 56 |
| 3.2. | Bandlik va ishsizlik darajasini trend va dinamika qatorlarining tebranishlariga asoslanib ekstropolyatsiyalash..... | 63 |
| | III bob bo'yicha xulosalar..... | 68 |
| | **Xulosa**..... | 70 |
| | **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**..... | 75 |

## Kirish

### Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bozor - bu muayyan tovarlar va xizmatlarga talab bildirayotgan xaridorlarni hamda ularni taklif etayotgan sotuvchilarni o‘zaro bog'lovchi tuzilma yoki usuldir. U talab va taklif asosida ishlaydi. Bozor iqtisodiyoti muhitida turli xil bozorlar, jumladan, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, tayyor mahsulotlar, qimmatli qog'ozlar va pul (kredit) bozorlari faoliyat ko‘rsatadi, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu bozorlarning o‘ziga xosligi, asosan, ularning negizi bo‘lgan savdo ob’yekti – bozorning asosiy mahsuloti yoki tovarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra bozorlar turli shakllarda: kichik do‘konchadan tortib, yirik fond birjasi va xalqaro kreditlar bozorigacha bo‘lishi mumkin.

Bozorlar orasida mehnat bozori alohida o‘rin tutadi. Bozor iqtisodiyotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi mehnat bozoridir.

Mehnat bozori bandlikni tartibga solishda muhim va faol o‘rin tutadi. Aynan shu bozorda eng asosiy milliy resurslardan biri - ishchi kuchi shakllanadi, rivojlanadi hamda iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar va hududlar bo‘ylab samarali taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o‘tishi mehnat to‘g‘risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o‘zgartirib, jamiyat faoliyati rivojining mutlaqo yangi asoslari yaratilishini taqazo etadi. Mehnat tushunchasi muhim iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u muntazam ravishda tadqiq qilish va aniqlashni talab qiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar mehnat munosabatlarining mohiyati va xususiyatlarida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berishiga zamin yaratdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach mulk shakllarining xilma-xilligi vujudga keldi, mehnat yollanadigan bo‘ldi, ishchi kuchi esa tovarga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ishlab chiqarish dasturlarini iloji boricha kamroq ishchi kuchidan foydalanib amalga oshirishga intiladilar. Natijada barcha tarmoqlarda ortiqcha ishchi kuchidan xalos